

UDK: 619:636.2:617.3:616

**QORAMOLLARDA YIRINGLI PODADERMATITNING ETIOPATOGENEZI VA UNI  
DAVOLASH**

**Tashtemirov R.M** *vet.f.n., professor*

**Esanboyeva G** *magistrant*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik  
va biotexnologiyalar universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada qoramollarda uchraydigan tuyoq kasalliklarining uchrash darajasi va davolash keltirilgan.*

**Kalit soʻzlar:** *qoramollar, tuyoq kasalligi, oqsash, salvadori persidskoy linimenti*

**MAVZUNING DOLZARBLIGI**

Bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlarida qoramollar orasida oyoqlarning distal boʻlimi kasalliklari keng tarqalishi kuzatilmoqda. Chorvachilik komplekslar va fermalari sharoitlarida saqlanayotgan qoramollar jarrohlik kasalliklarining 90%-ini oyoq kasalliklari tashkil etadi va bunday kasalliklar jarohat, boʻgʻim-pay choʻzilishlari, tuyoqlarning yiringli-nekrotik zararlanishi koʻrinishlarida namoyon boʻladi [6].

Qoramollarda yiringli pododermatitning tarqalishini batafsil oʻrgangan boʻlib, uning maʼlumotlariga koʻra, sutchilik kompleksidagi mavjud 730 bosh sigirlardan 226 bosh ( 30,9 % ) tuyoq kasalliklari bilan kasallangan boʻlib, 81 boshda (35%) yiringli pododermatit kuzatilgan. [5].

Tadqiqotchilar maʼlumotlari boʻyicha 93,5-95,2 % holatda hayvonlarning orqa oyoqlari, 10-12 % holatda esa ikkala oyogʻining ham zararlanishi aniqlangan. Shuningdek, hayvonlarda tuyoq kasalliklarining ichida yiringli pododermatit hamda yiringli-nekrotik yaralar ustunlik qiladi va ular qayd etilgan umumiy holatlarning 40-50 foizini tashkil etadi [1].

Ayrim tadqiqotchilar ning maʼlumotlariga koʻra, hayvonlar barmoqlar sohasining flegmonalari 2 %, pododermatitlari 16 %, yiringli jarohatlari 12 % ni tashkil etadi [9].

Qoraqalpogʻiston Respublikasidagi ayrim qoramolchilik fermer xoʻjaliklaridagi tuyoq kasalliklarining uchrash darajasi jami 344 bosh qoramollardan 14 tasida (4,06%) uchragan [10, 11].

Yiringli pododermatit bilan kasallangan qoramollarni davolashda sorbentlarni qoʻllash birmuncha yaxshi samara berib, bunda qonning morfologik koʻrsatkichlarining tez tiklanishi, hususan eritrotsitlar va gemoglobin miqdorlarini oshishi shikastlangan toʻqimalarda yoki umuman organizmda oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining jadal koʻtarilishidan dalolat beradi [3].

Kasallikning kelib chiqishi va tarqalishiga hayvon organizmi mahalliy va umumiy rezistentligining pasayishiga olib keladigan omillar sabab boʻladi va bunday omillarga

shikastlanishlar, binoda namlikni yuqori bo'lishi, hayvonlarni noto'g'ri oziqlantirish va ulardan noto'g'ri foydalanish, shuningdek, nekrobakterioz qo'zg'atuvchilari va boshqa mikroorganizmlar bilan zararlanishlarni kiritish mumkin [4].

Ilmiy tadqiqot ishlarida yiringli pododermatit kasalligiga chalingan qoramollarni kompleks davolash maqsadida "Salvadori persidskoy" linimenti qo'llanilganda, linimentning rezorbtiv hamda gistologik tuzilmalar orqali yaxshi o'ta olish xususiyatlariga ega ekanligi bois epidermis elastikligini oshirish orqali unga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy asoslangan [7].

Ayrim mualliflar tuyoq kasalliklaridan pododermatit va har xil yaralarni keltirib chiqaruvchi sabablarga hayvonlarni to'la qiymatsiz oziqlantirish, saqlash va parvarishlashni ko'rsatishgan. Mualliflarni ta'kidlashicha, ushbu barcha omillar, o'z navbatida yiringli-nekrotik jarayonlarga sabab bo'luvchi tuyoq deformatsiyasiyalarini keltirib chiqaradi [2].

Oyoqlarning distal bo'limi kasalliklarini asosiy sabablari hayvonlarni saqlash sharoiti va oziqlantirishni almashuvi, shuningdek poda guruhlarini shakllantirishda xatolikka yo'l qo'yilishi hisoblanadi. Muallifning fikricha, ixtisoslashtirilgan xo'jaliklarda sut ishlab chiqarishda sanoat usullarini qo'llanilishi hayvonlarni saqlash sharoitini sezilarli darajada o'zgartirgan va organizmda fiziologik yukni birmuncha oshirgan [8].

### OLINGAN NATIJALAR

Samarqand viloyatidagi tadqiqot natijalari ko'rsatishicha qoramollar oyoqlari distal qismidagi kasalliklari quyidagi darajada qayd etildi:

2-jadval

#### Samarqand viloyatidagi tekshirilgan fermer xo'jaliklardagi ha'r xil tuyoq kasalliklarining uchrash darajasi

T/r	Fermer nomi	xo'jaliklar	Tuyoqchalari kasallangan qoramollar		Tuyoq kasalliklari nomi								
					Padoderma-titlar		rustergols yarasi		Tuyoqcha kafti chirishi		Tuyoqch-aning haddan ziyod o'sichi		
					soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	soni
.	«Firdavsjon bog'lari chorva»		117	12	10.2	4	33.3	5	41,6	1	8,3	2	16,6
.	« Sattorbobo chorva»		35	3	8,57	1	33,3					2	66,6
.	«Jahongir Jasmina »		83	4	4,8					2	50	2	50
.	Aholi qaramog'idagi		84	10	11.9	2	20			4	40	4	40
	<b>Jami:</b>		<b>319</b>	<b>29</b>	<b>9</b>	<b>7</b>	<b>24.3</b>	<b>5</b>	<b>17.2</b>	<b>7</b>	<b>24.3</b>	<b>10</b>	<b>34.4</b>

## XULOSA

2-jadvaldan ko'rinib turganday jami 319 bosh qoramollardan 29 tasida (9%) har xil tuyuq kasalliklari aniqlandi shunnan, «Firdavsjon bog'lari chorva» fermer xo'jaligidagi qoramollardan 12 tasida (10,2%), «Sattorbobo chorva» fermer xo'jaligidagi qoramollardan 3 tasida (8,57%), «Jahongir Jasmina» fermer xo'jaligidagi sigirlardan 4 tasida (4,8%) va aholi qaramogida qoramollarda esa 10 tasida (11,9%) har xil tuyuq kasalliklari bilan kasallanganligi aniqlandi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гугкаева М.С., Чеходариди Ф.Н. Комплексная терапия гнойного пододерматита у коров // Вестник ветеринарии. -2011. -№ 57. –С. 67-72.
2. Елисеев А.Н., Коломейцев С.М., Бледнов А.И., Толкачев В.А., Болдырев Д.Н., Стебловский Е.А. Комплексный метод лечения гнойно-некротических поражений тканей у молодняка крупного рогатого скота // Вестник КГСХА. -2013. -№ 9. –С. 71-73.2.
3. Идогов В.В. Лечение коров больных гнойным пододерматитом с применением биологически активных сорбентов // Дисс. канд. вет. наук. Ульяновск, 2011. 194 с.
4. Иванов А.В., Хузин Д.Ф., Макаев Х.Н., Мухамметшин Н.А., Хусниев Ф.А., Чуринов А.П., Хабибуллин Т.Р. Антисептическое средство 4HOOVES для обработки копытцев // Ветеринария. -2012. -№ 7. –С. 12-15.
5. Кириллов А.А. Комплексный метод лечения коров, больных гнойным пододерматитом // Дисс. канд.вет.наук. Санкт-Петербург, 28 с.
6. Марьин Э.М., Ляшенко П.М., Сапожников А.В. Клиническая и патоморфологическая характеристика гнойных пододерматитов у крупного рогатого скота. Вестник Ульяновской государственной сельскохозяйственной академии. Ульяновск, 2015. –С. 123-132
7. Мергани Хасан, Мустафо Осман. “Фармакотерапия гнойного пододерматита крупного рогатого скота в условиях Краснодарского края”// Автореф. дисс. канд. вет. наук. Краснодар, 2009. 22 с.
8. Панько И.С., Издепский В.И., Тыхонюк А. и др. Профилактика травматизма крупного рогатого скота // Ветеринария. - 1990.- № 5. –С. 58-60
9. Руколь В.М., Влияние кормления и содержания на возникновение болезней конечностей у коров // Ветеринария. -2011. -№ 8. –С. 8-11.
10. Tashtemirov, R. M. Dauletbaev, N.P. (2022). QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI AYRIM QORAMOLCHILIK XO'JALIKLARIDA TUYUQ KASALLIKLARINING UCHRASH DARAJASI. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 205-207.
11. Tashtemirov, R. M. (2022). ZOTLI QORAMOLLARDA PODODERMATITLARNI KELTIRIB CHIQUARUVCHI OB'JEKTIV OMILLAR. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 445-448.